

**“ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA URUSH DAVRI HAYOTI VA
INSON KECHINMALARINING BADIY TALQINI.”****Normatova Lobar Dilshod qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning hikoyalari xalq hayoti, urush davri qiyinchiliklari va insoniy kechinmalarni chuqur badiiy mahorat bilan aks ettiradi. Ushbu maqolada adibning “Anor”, “O‘g‘ri”, “Bemor” va “Asror bobo” hikoyalari tahlil qilinib, ularda urush davridagi ijtimoiy muhit, inson ruhiyati, qashshoqlik va jamiyatsdagi adolatsizlik masalalari qanday yoritilgani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, yozuvchining so‘z tanlashdagi mahorati, fojia va komik unsurlarni uyg‘unlashtirish orqali hayot haqiqatini ochib berishdagi uslubi yoritiladi.

Kalit so‘z: Hikoya janri, urush davri, ijtimoiy muhit, inson kechinmalari, qashshoqlik, adolatsizlik, badiiy mahorat, fojia va komizm, o‘zbek adabiyoti.

Annotation: Abdulla Qahhor is considered one of the prominent representatives of Uzbek literature, whose stories vividly and artistically reflect the life of the people, the hardships of the wartime period, and human emotions. This article analyzes the writer’s stories “Anor,” “O‘g‘ri,” “Bemor,” and “Asror bobo,” highlighting how the social environment of the wartime period, human psychology, poverty, and social injustice are portrayed in them. The study also examines the author’s mastery in the choice of words and his ability to reveal the truth of life through the combination of tragic and comic elements.

Keywords: Short story genre, wartime period, social environment, human emotions, poverty, injustice, artistic mastery, tragedy and comedy, Uzbek literature.

Аннотация: Абдулла Каххор считается одним из выдающихся представителей узбекской литературы, чьи рассказы художественно и правдиво отражают жизнь народа, трудности военного времени и человеческие переживания. В данной статье анализируются рассказы писателя «Anor», «O‘g‘ri», «Bemor» и «Asror bobo», в которых раскрываются социальная среда военного периода, психология человека, бедность и социальная несправедливость. Также рассматривается мастерство автора в выборе слов и его

умение раскрывать правду жизни через сочетание трагических и комических элементов.

Ключевые слова: Жанр рассказа, военное время, социальная среда, человеческие переживания, бедность, несправедливость, художественное мастерство, трагедия и комизм, узбекская литература.

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining mohir so'z san'atkorlaridan biri sanaladi. Muayyan xarakter va holatni aks ettiradigan so'zni qo'llab va uni o'z qolipiga tushgandek o'rnini topib ishlatish Abdulla Qahhor ijoding o'ziga xos jihati hisoblanadi. Bu jihatdan u haqiqiy mo'jizakor adibdir. So'z Abdulla Qahhor oldida bamisoli itoatkor askar, qaysi ma'no tomon buyruq qilsa shu tomon yuz tutib, xizmatiga tayyor turgandek bo'ladi. Shunga qaramasdan so'zlarni ayab son jihatidan katta va teran fikrlarni ifoda etadi. Abdulla Qahhor ijodida ko'rishimiz mumkinki, har bir asaridagi so'zlar dur kabi ipga tortilgan. Orasidan birini olib bo'lmaydi. Abdulla Qahhorning asarlarining mavzulariga e'tibor qaratilsa, salmoqli darajadagisi urush mavzusini yoritib bergan. O'quvchi ushbu hikoyalarni o'qiganda o'sha davr hayotida yashaydi. Urush davridagi o'zbek xalqining turmushi adib asarlarida ro'yi-rost tarzda ochib berilgan. Abdulla Qahhor asosan hikoya janrida ijod qilgan sanalib, uning "Anor", "Asror bobo", "O'g'ri", "Bemor" kabi hikoyalarda urush davri, insonlarning kechinmalari, yo'qchilik, qahatchilik, urushning salbiy oqibatlarini sabab xalqning boshiga tushgan ko'rgiliklar, armonlar, urush sababli jigarbandidan ajralgan mushtipar ota-onalar hayoti aks ettirilgan. Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasida urush yillaridagi yo'qchilik, insonlarning og'ir turmushi mahorat bilan ochib berilgan.

Hikoyada oddiy mehnatkash yigit Turobjonning hayoti tasvirlangan bo'lib, uning na cho'ntagida puli bor, na uyida moli, na bir parcha yeri bor. Hayotida birdan bir boyligi – sevgan ayoli bor. Er-xotin amal taqal qilib hayot kechiradi. Ayoli anorga boshqorong'i bo'ladi. Turobjon o'ylaydiki, boshqorong'i ayoli anorni o'rniga boshqa tansiq narsa yesa ham bo'lsa kerak deb o'ylaydi. Shunda bir boyning eshigida ishlayotganida unga asal berishadi va u xursand bo'lib, ayoliga asal olib keladi. Ayoli asalni yemaydi. Anor yegisi kelganini aytadi, eri bu yo'qchilik davrida endi qayerdan topay deb jahl qiladi. Bu "Anor" hikoyasining mazmuni – oddiy bir mehnatkash yigit Turobjon sevikli xotining oddiy bir talabini qondirishga kuchi yetmaydi buning uchun o'g'irlikka tushishga majbur bo'ladi. Bu hikoyada fojia tasvirlangan. Biz fojiani o'lim bilan tugaydi deb hisoblaymiz, ammo bu hikoyada o'lim yo'q. Biroq o'limdan ham yomonroq, dahshatliroq bir narsa bor. Bu yigitning sevikli ayolini istagini bajo keltira olmay iztirob chekishi oqibatda o'g'irlikka qo'l urishga majbur bo'lishi bu hikoyaning fojiasi sanaladi. Bu bilan "Anor"da davrning ijtimoiy, siyosiy masalalari

fojining sababi sifatida birinchi planga chiqarilmaydi. Fojining sof sababi oilaviy-moddiy masala. Siyosiy va ijtimoiy masalalar sahna orqasiga olinadi.

Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida ham o‘sha davr ruhi ajoyib bo‘yoqlar orqali ifodalangan. Hikoya boshlanishidan “Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchang og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko‘zlari javdiraydi, hammaga qaraydi ammo hech kimni ko‘rmaydi”. Xuddi shu xildagi ma‘nodor iboralar bilan bu xildagi fojining naqadar tipik ekanini ham ifodalaydi. “Odamlar dod ovozigaga ham o‘rganib qolgan: birovning eri uradi, birovning uyi xatga tushadi...” Bu gaplarni yana davom qildirish mumkin bo‘lar edi: “Birovning uyi teshiladi, ho‘kizi o‘g‘irlanadi, yana birovning yana bir narsasi. Bu zamon shunday zamon edi”. Bu ho‘kizni topish muammosi bilan Qobil bobo boshini ming bir eshikka uradi. Ammo har yerda ham o‘z nafsini o‘ylaydigan, arzdorning qo‘liga qarab qolgan, qashshoq xalqning moliga ko‘z tikkan amaldorlarga duch kelar edi. Orada amaldorlar orasida sarson bo‘ladi. Qobil boboning shu xilda behudaga yuqori chiqib, pastga tushishining o‘zida komik ma‘no bor. O‘sha zamon hayotiga xos bo‘lgan sansalorlik va buning orqasida amaldorlarning o‘z nafslarini qondirish yo‘llari mazax qilinadi. Qobil boboning xarakteri tasvirida ham achinish aralash mazax bor. U go‘l, ezilgan, o‘zining haq-huquqini talab qilishga odatlanmagan. Bu Qobil bobo xarakteri orqali xalqning soddaligi, o‘z haq-huquqini bilmasligi ochib berilgan. Amaldorlar poradan boshqa narsani o‘ylamasdi. Xalqning holiga esa befarq edilar. Pora olganlar ham Qobil bobochilikka mos edi. Qobil bobo porani shak-shubhasiz bir narsa deb tushunsa, ular ham bu ishni shak-shubhasiz deb tushunishardi. Ular uchun faqat pora olish emas, porani olib arzini e‘tiborsiz qoldirish ham odatdagi ish edi. Bundan ularning na vijdoni azob tortar, na ularda uyat hissi uyg‘onar edi. Shunday qilib, hayotning jirkanch tomonlarini fojiviy va komik planda aks ettirish ikki tomondan olib boriladi. Qobil bobo qismatini ko‘rib biz ich-ichimizdan achinamiz, uning sarguzashtlarini ko‘rib yuzimizga tabassum yuguradi, ellikboshi, amin va pristavlarning qilmishlari bilan tanishib, o‘sha zamon ustidan kulamiz va nafratlanamiz.

“Bemor” hikoyasida esa “bemor” bu Sotiboldining xotini emas, balki xalqning bemor ekanligi “kosa tagida nim kosa” qabilida aytib o‘tilgan. Bu hikoyada Hamza iborasi bilan aytilganda “xalq tanasidan qon olgan bemorga” o‘xshatiladi.

“Asror bobo” hikoyasida biz yillar davomida birga yashab bir tan-jon bo‘lib ketgan er va xotinni ko‘rishimiz mumkin. Aziz jigarbandini urushga yuborib undan kelgan qora xatni sir saqlagan ota-onalar bizni anchayin o‘yga toldiradi. Ikkisi ham bir-birini yolg‘izlatib qo‘ymaydi. Agar o‘lim xabarini eshitsa, ayolim qanday ahvolga tushadi

deb Asror bobo bu xabarni sir saqlaydi. Ayoli ham erining holatini o'ylab bu xabarni eriga aytmaydi.

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining mohir so'z san'atkorlaridan biri sifatida, har bir hikoyasida xalq hayoti, urush davri qiyinchiliklari va inson ruhiy kechinmalarini chuqur badiiy mahorat bilan aks ettiradi. Uning "Anor", "O'g'ri", "Bemor" va "Asror bobo" hikoyalari ijtimoiy va oilaviy muammolar, qashshoqlik, adolatsizlik, urushning salbiy oqibatlarini kabi masalalarni ochib beradi. Qahhor so'zlarni tanlashdagi mohirligi orqali fojia va komik unsurlarni uyg'unlashtirib, hayot haqiqatini o'quvchiga yetkazadi. Hikoyalardagi dramatik vaziyatlar va oddiy insonlarning kechinmalari orqali adib davr ruhini aniq ifodalaydi. Shu bilan birga, uning asarlarida siyosiy va ijtimoiy muammolar sahna ortida qolsa-da, o'quvchi ularni sezadi va tahlil qiladi. Umuman olganda, Abdulla Qahhor ijodi nafaqat o'zbek hikoyachiligi tarixida, balki butun milliy adabiyotimizda ijtimoiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan noyob merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
2. Abdulla Qahhor. Hikoyalar to'plami. – Toshkent.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
4. Qo'shjonov Matyoqub. "Abdulla Qahhor mahorat" Monografiya. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1988.
5. XX asr o'zbek adabiyoti bo'yicha darslik va ilmiy manbalar.